

boshqaruvida miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslangan yondashuvdan sifat va natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv modeliga o'tish uchun zarur metodologik asos yaratiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, TSEI modeli turizm xizmatlari sifati va boshqaruv samaradorligini baholashga xizmat qilsa, ETV modeli ushbu samaradorlikning iqtisodiy natijalarga transformatsiyalanish darajasini aniqlash imkonini beradi. Natijada turizm rivojlanishini miqdoriy ko'rsatkichlardan sifat va natijadorlikka asoslangan boshqaruv modeliga o'tkazish uchun zarur ilmiy asos yaratiladi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- turizm statistikasi tizimini takomillashtirish va unga TSEI hamda ETV indikatorlarini bosqichma-bosqich integratsiyalash;

- “Smart Tourism Uzbekistan” platformasini turizm ma'lumotlarini yig'ish, monitoring qilish va tahlil etishning yagona raqamli ekotizimi sifatida shakllantirish;

- hududlar va turistik destinatsiyalar kesimida TSEI hamda ETV reyting tizimlarini joriy etish orqali turizm rivojlanishining taqqoslama tahlillarini amalga oshirish;

- turizm xizmatlari samaradorligini baholashda sun'iy intellekt, Big Data va raqamli monitoring texnologiyalaridan foydalanish amaliyotini kengaytirish;

- turizm infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiya loyihalarini tanlash va davlat dasturlarini baholashda TSEI hamda ETV ko'rsatkichlaridan asosiy analitik instrument sifatida foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, taklif etilgan metodologik yondashuvlar O'zbekiston turizm sektorida samaradorlikni baholashning zamonaviy tizimini shakllantirish, turizm xizmatlari sifatini oshirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish hamda sohaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kamoliddin JAHONGIROV,
O'zbekiston xalqaro ishlomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi o'qituvchisi

O'ZBEKISTONDA TA'LIM TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim turizmining jahon turizm tizimidagi o'rni, uning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati hamda rivojlanish tendensiyalari ilmiy asosda tahlil qilingan. Ta'lim turizmining inson kapitalini shakllantirish, “soft power”ni kuchaytirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi strategik yo'nalish sifatidagi roli yoritilgan. Shuningdek, global bozor dinamikasi hamda O'zbekistonda xorijiy talabalar oqimi bo'yicha statistik ma'lumotlar asosida tahlil amalga oshirilgan. Tadqiqotda mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish va sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar: taʼlim turizmi, xalqaro turizm, inson kapitali, akademik mobillik, globalizatsiya, bilim iqtisodiyoti, “soft power”, xalqaro talabalar, turizm bozori, iqtisodiy barqarorlik, madaniyatlararo integratsiya, taʼlim eksporti, turizm infratuzilmasi.

Аннотация. В данной статье проводится научно обоснованный анализ роли образовательного туризма в мировой системе туризма, а также его экономического, социального и культурного значения и тенденций развития. Образовательный туризм рассматривается как стратегическое направление, способствующее формированию человеческого капитала, укреплению «мягкой силы» (soft power) и обеспечению устойчивого экономического развития. Кроме того, в исследовании анализируются динамика мирового рынка и статистические данные по потоку иностранных студентов в Узбекистане. В работе выявлены существующие проблемы и представлены научно обоснованные выводы и предложения, направленные на их устранение и дальнейшее развитие данной сферы.

Ключевые слова: образовательный туризм, международный туризм, человеческий капитал, академическая мобильность, глобализация, экономика знаний, «мягкая сила» (soft power), иностранные студенты, туристический рынок, экономическая устойчивость, межкультурная интеграция, экспорт образования, туристическая инфраструктура.

Abstract. This article provides a scientifically grounded analysis of the role of educational tourism within the global tourism system, as well as its economic, social, and cultural significance and development trends. It highlights educational tourism as a strategic sector contributing to human capital development, strengthening soft power, and promoting sustainable economic growth. In addition, the study analyzes global market dynamics and statistical data on the flow of international students in Uzbekistan. The research identifies existing challenges and presents evidence-based conclusions and proposals aimed at addressing these issues and further developing the sector.

Keywords: educational tourism, international tourism, human capital, academic mobility, globalization, knowledge economy, soft power, international students, tourism market, economic sustainability, intercultural integration, education export, tourism infrastructure.

Bugungi kunda jahon turizm tizimi jadal diversifikatsiyalashib, klassik turizm turlaridan tashqari koʻplab ixtisoslashgan va zamonaviy yoʻnalishlar shakllanib bormoqda. Taʼlim turizmi aynan shunday turizm turlaridan boʻlishiga qaramay, tez surʼatlar bilan rivojlanayotgan strategik turizm yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu turizm turi klassik turizm turlaridan farqli ravishda bevosita inson kapitalini rivojlantirish, bilim va malaka oshirish, ilmiy hamda kasbiy kompetensiyalarni kengaytirishga yoʻnaltirilganligi bilan ajralib turadi. Taʼlim turizmining shakllanishi globalizatsiya jarayonlari, xalqaro akademik mobillikning kuchayishi hamda bilim iqtisodiyotiga oʻtish bilan bevosita bogʻliqdir.

Taʼlim turizmining eng muhim afzalliklaridan biri uning “soft power” vositasi sifatida davlatlarning xalqaro imijini mustahkamlashga xizmat qilishidir. Xorijiy talabalar va tadqiqotchilar oʻquv jarayoni davomida mamlakatning ijtimoiy-madaniy muhitini bevosita oʻzlashtiradi, natijada mazkur davlatga nisbatan ijobiy tasavvur shakllanadi. Bu jarayon uzoq muddatli diplomatik va madaniy taʼsirni kuchaytirib, mamlakatning global nufuzini oshiradi.

Ikkinchidan, taʼlim turizmi mavsumiylik muammosini sezilarli darajada kamaytiruvchi barqaror turizm turi hisoblanadi. Klassik turizm turlarida talab koʻpincha mavsumiy tebranishlarga bogʻliq boʻlsa, taʼlim turizmi oʻquv jarayonining uzluksizligi tufayli yil davomida doimiy oqimni taʼminlaydi. Bu esa turizm infratuzilmasidan samarali foydalanish va xizmat koʻrsatish sohasida barqaror

bandlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ta'lim turizmi uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikka ega bo'lib, u faqat xizmat iste'moli emas, balki investitsion xarakterdagi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Xorijiy talabalar tomonidan to'lanadigan ta'lim to'lovlari, yashash xarajatlari va turli xizmatlar mamlakat iqtisodiyotiga barqaror valyuta oqimini ta'minlaydi. Eng muhimi, ushbu jarayon natijasida shakllangan inson kapitali keyinchalik global mehnat bozorida yuqori qo'shilgan qiymat yaratadi.

To'rtinchidan, ta'lim turizmining yana bir muhim jihati madaniyatlararo integratsiyani kuchaytirishidir. Turli millat vakillarining bir ta'lim muassasasida tahsil olishi o'zaro madaniy almashinuv, bag'rikenglik va global fuqarolik ongining shakllanishiga xizmat qiladi. Bu jarayon xalqaro ijtimoiy aloqalarni mustahkamlab, barqaror global hamkorlik uchun ijtimoiy poydevor yaratadi.

Beshinchidan, ta'lim turizmi innovatsion bilim va texnologiyalar transferining muhim kanali sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro akademik mobillik natijasida universitetlar va ilmiy markazlar o'rtasidagi hamkorlik kengayadi, ilmiy g'oyalar va innovatsiyalar tezkor almashinuvga erishadi. Bu esa mamlakatlarning ilmiy salohiyatini oshirib, ularni global bilimlar tarmog'iga integratsiyalashuvini tezlashtiradi.

Shuningdek, ta'lim turizmi klassik turizm turlaridan farqli ravishda sezilarli darajada "leakage" ya'ni, iqtisodiy oqimning tashqi iqtisodiyotga chiqib ketishi muammosini keltirib chiqarmaydi. Buning asosiy sababi shundaki, ta'lim turizmi doirasida amalga oshiriladigan asosiy xarajatlar hisoblanadigan ta'lim to'lovlari, yashash xarajatlari, transport va xizmatlar bevosita milliy iqtisodiyot ichida shakllanadi va ichki bozor subyektlari tomonidan qamrab olinadi. Klassik turizm esa daromadning katta qismi import mahsulotlar va tashqi xizmatlarga sarflanishi natijasida chiqib ketish holatlari kuzatiladi. Ta'lim turizmida esa asosiy qiymat yaratilishi inson kapitali shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, u ichki iqtisodiyotda qoladi va uzoq muddatli multiplikativ samara beradi. Shu sababli, ta'lim turizmi iqtisodiy jihatdan nisbatan barqaror va leakage darajasi juda past bo'lgan turizm turi sifatida baholanadi.

1-jadval

Global o'rta sinf vakillari holati (2024–2030)³⁰

Yil	Global o'rta sinf soni (mlrd. kishi)	Jahon aholisidagi ulushi (%)
2024	3,96	~48,3
2025	4,10	~49,7
2026	4,22	~50,8
2030	4,70	~55,3

Jadvaldan ko'rinadiki, jahon miqyosida o'rta sinf soni izchil oshib bormoqda. 2025-yilda global o'rta sinf vakillari soni 4,1 milliard kishiga yetib, insoniyatning deyarli yarmiga tenglashmoqda. 2030-yilga borib esa bu ko'rsatkich 4,7 milliard kishiga yetishi prognoz qilinmoqda. Ayniqsa, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi ushbu

³⁰ World Population Prospects / United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division. – Electronic resource. – Mode of access: <https://population.un.org/wpp/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi (murojaat qilingan sana: 15.05.2026)

o'sishning asosiy drayveri sifatida ko'rilmoqda. O'rta sinfning kengayishi xalqaro turizm, ta'lim xizmatlari, premium iste'mol va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga kuchli turtki beradi.

Shuningdek, global ta'lim turizmi bozori so'nggi yillarda eng tez o'sayotgan xizmatlar segmentlaridan biriga aylanib bormoqda. Jumladan, 2024-yilda bozor hajmi qariyb 460 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2030-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 975 milliard dollarga yaqinlashishi kutilmoqda³¹. Bozorning kengayishiga xalqaro talaba almashinuvi, qisqa muddatli til kurslari, akademik mobility dasturlari, madaniy-tarixiy ta'lim safarlari hamda professional treninglar sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, raqamli platformalar va xalqaro universitet tarmoqlarining rivojlanishi ta'lim turizmi bozorini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim turizmini rivojlantirish davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Mazkur yo'nalishning huquqiy va institutsional asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va strategik hujjatlar orqali mustahkamlanmoqda. Xususan, 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmon bu borada muhim dasturiy hujjat bo'lib xizmat qiladi. Ushbu farmonning 1-ilovasida belgilangan 58-maqсад doirasida mamlakatda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish orqali sayyohlar oqimini kengaytirish, turizm xizmatlari eksportini oshirish hamda xizmatlar eksporti tarkibida tibbiyot va ta'lim turizmi ulushini sezilarli darajada kengaytirish vazifalari belgilangan. Xususan, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard AQSh dollariga, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini esa yiliga 1,5 milliard AQSh dollariga yetkazish maqsadlari ushbu sohaning milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi³².

Shuningdek, 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son Farmon oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini tubdan modernizatsiya qilishga qaratilgan bo'lib, unda O'zbekistonni mintaqaviy ta'lim va ilm-fan markaziga aylantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur farmon doirasida har yili 500 nafargacha xorijiy iqtidorli talabalarga "Yangi O'zbekiston stipendiyasi" doirasida grant ajratilishi hamda 2026/2027-o'quv yilidan "Study in Uzbekistan" platformasi orqali xorijiy talabalarni qabul qilish tizimi joriy etilishi ta'lim turizmining raqamlashtirilgan va markazlashgan modelini shakllantirishga yo'naltirilgan³³.

2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekistonda tahsil olayotgan xorijiy talabalar sonida barqaror va yuqori o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, 2016/2017-o'quv yilida respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijiy talabalar soni atigi 603 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2024/2025-o'quv yiliga kelib ushbu ko'rsatkich 12 500 nafarga yetgan. Bu esa mazkur davr mobaynida xorijiy talabalar kontingenti qariyb 20 baravarga oshganini ko'rsatadi.

³¹ Research and Markets Ltd. Market Research Reports & Industry Analysis [Elektron resurs]. – Access mode: <https://www.researchandmarkets.com/>

³² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

³³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2026-yildagi PF-58-son "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari" to'g'risidagi Farmoni // <https://www.lex.uz/uz/docs/-8129755#-8134441>

2-jadval**O‘zbekistonda tahsil olayotgan xorijiy talabalar kontingenti
(2016-2025-yillar kesimida)³⁴**

№	O‘quv yili	Talabalar soni
1.	2016/2017-o‘quv yili	603 nafar
2.	2017/2018-o‘quv yili	1 320 nafar
3.	2018/2019-o‘quv yili	2 685 nafar
4.	2019/2020-o‘quv yili	3 593 nafar
5.	2020/2021-o‘quv yili	4 219 nafar
6.	2021/2022-o‘quv yili	5 140 nafar
7.	2022/2023-o‘quv yili	6 940 nafar
8.	2023/2024-o‘quv yili	10 597 nafar
9.	2024/2025-o‘quv yili	12 500 nafar

Tahlillarga ko‘ra, ayniqsa 2018-yildan keyingi davrda o‘shir sur‘atlari sezilarli darajada jadallashgan. Jumladan, 2018/2019-o‘quv yilida xorijiy talabalar soni 2 685 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2023/2024-o‘quv yilida bu ko‘rsatkich 10 597 nafarga yetgan. Mazkur holat mamlakat oliy ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan xalqaro integratsiya jarayonlari, xorijiy fuqarolar uchun yaratilayotgan qulay akademik muhit hamda ta‘lim xizmatlari eksportining rivojlanishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, 2020–2025-yillar oralig‘ida xorijiy talabalar sonining izchil o‘shir borishi O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi nufuzli ta‘lim markazlaridan biriga aylanib borayotganini ko‘rsatadi. Xususan, zamonaviy universitetlar faoliyatining kengayishi, xorijiy oliy ta‘lim muassasalari filiallarining ochilishi, ta‘lim dasturlarining diversifikatsiyalashuvi hamda xalqaro hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishi ushbu jarayonga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan.

3-jadval**2026-yil yanvar–mart oylarida o‘qish maqsadida O‘zbekistonga kelgan
chet el fuqarolari tarkibi³⁵**

№	Davlatlar	Talabalar soni (nafar)
1.	Turkmaniston	7174
2.	Hindiston	2835
3.	Tojikiston	1170
4.	Xitoy	641
5.	Qirg‘iziston	483
6.	Pokiston	438
7.	Misr	353
8.	Janubiy Koreya	342
9.	Filippin	286
10.	AQSH	191
11.	Boshqa davlatlar	1211
Jami		15124

3-jadval ma‘lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2026-yilning yanvar–mart oylarida O‘zbekistonga o‘qish maqsadida tashrif buyurgan chet el fuqarolari soni

³⁴ <https://stat.edu.uz/students> ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi (murojaat sanasi: 17.05.2026).

³⁵ www.stat.uz O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi (murojaat sanasi: 17.05.2026).

15124 nafarni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 8,5 ming nafarga yoki 2,3 barobarga oshganini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkich mamlakatning xalqaro ta'lim makonidagi nufuzi ortib borayotganini hamda O'zbekistonning mintaqaviy ta'lim markaziga aylanish jarayoni jadallashayotganini ko'rsatadi.

Tahlillarga ko'ra, xorijiy talabalar oqimida Turkmaniston yetakchi o'rinni egallab, ushbu davlatdan 7174 nafar fuqaro O'zbekistonda tahsil olish uchun kelgan. Bu umumiy ko'rsatkichning qariyb yarmiga tengdir. Keyingi o'rinlarda 2835 nafar bilan Hindiston, 1170 nafar talaba bilan Tojikiston qayd etilgan bo'lib, mazkur holat O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari orasida yuqori darajada talabgir ekanini anglatadi.

Shuningdek, Xitoy, Janubiy Koreya, Misr, Filippin hamda AQSH kabi davlatlardan kelgan talabalar soni ham O'zbekiston ta'lim tizimining xalqaro qamrovi kengayib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Osiyo va boshqa mintaqalardan talabalar oqimining ortishi mamlakatimizda yaratilayotgan zamonaviy ta'lim muhiti, xalqaro hamkorlik dasturlari hamda xorijiy talabalar uchun qulay akademik sharoitlar bilan izohlanadi.

O'zbekistonda ta'lim turizmini rivojlantirish so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lsa-da, mazkur sohada bir qator tizimli va institutsional muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolar ta'lim xizmatlarining xalqaro raqobatbardoshligi, infratuzilma sifati hamda akademik mobillik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Birinchiidan, ta'lim turizmi infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Xorijiy talabalar uchun mo'ljallangan yotoqxonalar, talabalar shaharchalari, transport-logistika xizmatlari va servis infratuzilmasining barcha hududlarda bir xil darajada shakllanmagani xalqaro talabalar oqimini cheklovchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat ta'lim turizmining hududiy nomutanosib rivojlanishiga olib keladi.

Ikkinchiidan, ta'lim xizmatlarining xalqaro standartlarga to'liq mos kelmasligi muammosi mavjud. Ayrim oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarining to'liq xalqaro akkreditatsiyadan o'tmaganligi, kredit-modul tizimining bir xil darajada joriy etilmaganligi hamda ilmiy-tadqiqot salohiyatining yetarli darajada integratsiyalashmagani xorijiy talabalar uchun raqobatbardosh ta'lim muhitini shakllantirishni murakkablashtiradi.

Uchinchiidan, akademik mobillik va xalqaro hamkorlik darajasining cheklanganligi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Garchi so'nggi yillarda xalqaro universitetlar bilan hamkorlik kengayayotgan bo'lsa-da, qo'shma diplom dasturlari, ikki tomonlama almashinuvlar va xalqaro grantlar ulushi hali yetarli darajada emas. Bu esa ta'lim turizmining asosiy drayverlaridan biri bo'lgan "talaba oqimi"ning barqaror o'sishini sekinlashtiradi.

To'rtinchidan, marketing va xalqaro brending tizimining sust rivojlanganligi ham ta'lim turizmi salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi o'rni va global ta'lim platformalarida yetarli darajada targ'ib etilmasligi natijasida mamlakatning ta'lim destinatsiyasi sifatidagi jozibadorligi to'liq shakllanmagan.

Beshinchidan, viza, migratsiya va ma'muriy tartiblarning ayrim jihatlari ham xorijiy talabalar uchun qo'shimcha to'siqlarni yuzaga keltiradi. Garchi so'nggi yillarda bu borada soddalashtirish choralari amalga oshirilgan bo'lsa-da, amaliyotda xizmatlarning to'liq raqamlashtirilmaganligi va hududiy farqlar mavjudligi seziladi.

Oltinchidan, ta'lim turizmi sohasida statistik monitoring va ilmiy-tahliliy bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ham muhim muammo sifatida qayd etiladi. Xorijiy talabalar oqimi, ularning iqtisodiy hissasi va migratsion harakati bo'yicha yagona integratsiyalashgan ma'lumotlar tizimining to'liq shakllanmaganligi sohani strategik boshqarishda qiyinchiliklar tug'diradi.

Biroq, ushbu muammolarni bartaraf etish borasida ta'lim turizmini kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli va izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda bir qator ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi, bular quyidagilar:

- ta'lim turizmi infratuzilmasini modernizatsiya qilish va uning xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy talabalar uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish maqsadida talabalar yotoqxonalarini fondini kengaytirish, zamonaviy kampuslarni rivojlantirish hamda transport va servis xizmatlarini integratsiyalashgan tizim asosida takomillashtirish lozim;

- ta'lim xizmatlarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish uchun oliy ta'lim muassasalarida xalqaro akkreditatsiya jarayonlarini kengaytirish, qo'shma ta'lim dasturlarini rivojlantirish hamda kredit-modul tizimini to'liq va birxil joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa ta'lim sifatini oshirish orqali xorijiy talabalar uchun jozibador akademik muhit shakllanishiga xizmat qiladi;

- akademik mobillikni kengaytirish va xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish zarur. Xorijiy universitetlar bilan qo'shma ilmiy tadqiqotlar, akademik almashinuv dasturlari hamda grant loyihalarini ko'paytirish orqali ta'lim turizmi oqimini barqarorlashtirish mumkin;

- raqamli marketing va xalqaro brendingni kuchaytirish ham ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarini global ta'lim platformalarida faol targ'ib qilish, "Study in Uzbekistan" kabi tashabbuslarni xalqaro darajada ilgari surish hamda raqamli kommunikatsiya strategiyalarini takomillashtirish zarur;

- viza va migratsiya jarayonlarini soddalashtirish hamda to'liq raqamlashtirish ta'lim turizmining qulayligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. "Yagona darcha" tamoyilini joriy etish orqali xorijiy talabalar uchun ma'muriy to'siqlarni minimallashtirish maqsadga muvofiqdir;

- ta'lim turizmi bo'yicha yagona statistik va tahliliy axborot tizimini shakllantirish zarur. Xorijiy talabalar oqimi, ularning iqtisodiy hissasi hamda akademik mobillik ko'rsatkichlarini doimiy monitoring qilish sohani ilmiy asosda boshqarish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim turizmi jahon turizm tizimida yuqori qo'shilgan qiymatga ega va strategik ahamiyat kasb etuvchi yo'nalishlardan biri bo'lib, O'zbekistonda uning rivojlanishi xorijiy talabalar oqimining o'sishi va davlat darajasidagi islohotlar bilan bevosita bog'liqdir. Shu bilan birga, mavjud

infratuzilmaviy va institutsional muammolar sohaning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Umuman olganda, ta'lim turizmini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga integratsiyalash O'zbekistonning global ta'lim makonidagi mavqeini mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Population Prospects / United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division. – Electronic resource. – Mode of access: <https://population.un.org/wpp/>
2. Research and Markets Ltd. Market Research Reports & Industry Analysis [Elektron resurs]. – Access mode: <https://www.researchandmarkets.com/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF–158-son “O'zbekiston–2030” strategiyasi to'g'risidagi Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2026-yildagi PF–58-son “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha choratadbirlari” to'g'risidagi Farmoni // <https://www.lex.uz/uz/docs/-8129755#-8134441>
5. <https://stat.edu.uz/students> (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi statistik axborot portali)
6. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti)